



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot fakulteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida assistenti Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna tomonidan "Qishloq xo'jaligida moliyaviy tahlil" fanidan "Qiyosiy tahlil" mavzusi bo'yicha tayyorlagan ochiq amaliy darsi ishlanmasiga

## TAQRIZ

Ushbu ochiq amaliy darsining mavzusi "Qiyosiy tahlil" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi, amaliy dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimot qilingan holda uslubiy tomondan to'g'ri tanlangan. Ishlanmada ochiq amaliy darsining rejasi, maqsad va vazifalari, o'qitish pedagogik texnologiyalari berilgan bo'lib, unda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari to'liq ochib berilgan.

"Qiyosiy tahlil" amaliy dars mavzusi bo'yicha qiyosiy tahlilning mohiyati va asosiy maqsadi, qiyosiy tahlil turlari bo'yicha ko'nikmlarni shakllantirish, qiyoslash asosida o'rganilayotgan obyektidagi o'zgarishlar, ularning rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlari o'rganiladi, ushbu mavzuni o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati, mavzu yuzasidan qisqa savol javoblar, krossvord hamda testlar tuzilgan. Umuman olganda, Ruziyeva Dilafruz tomonidan tayyorlangan "Qiyosiy tahlil" mavzusidagi amaliy dars ishlanmasi "Ochiq ma'ruzalarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom" talablariga mos keladi va uni o'quv jarayonida foydalanishni uchun tavsiya etaman.

SamISI, "Marketing" kafedrasida katta o'qituvchi i.f.f.d. PhD

R.N.Jiyamuratov

